O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI BOYSUN TUMANI HOKIMINING
Q A R O R I
Boysun t., Hayot Abadiy ko‘chasi 1-uy. 190400, tel.: (+99876) 33-5-20-64, boysun_t@exat.uz, http://baysun.uz

2022 - yil 14 - fevral 92-8-110-Q/22 Boysun tuman hokimligi

Tumanda 2022-yilda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida

“Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekistan Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalari, “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 17-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga (keyingi o‘rinlarda – Nizom) muvofiq transport vositalarining 2022-yilda majburiy texnik ko‘rigini tashkil qilish maqsadida,

QAROR QILAMAN:

1. Tuman hududidagi mulkchilik shaklidan qat’iy nazar yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalari majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin.

2. Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi tarkibi 1-ilovaga, jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2022-yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Transport vositalari qo‘yidagi davriylikka muvofiq texnik ko‘rikdan o‘tkazilsin:

tijorat asosida yo‘lovchilar tashish faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yengil avtomobillar, avtobuslar, trolleybuslar, tramvaylar va o‘rindiqlar soni 8 ta va undan ortiq bo‘lgan (haydovchining o‘rnidan tashqari), odamlarni muntazam tashish uchun jihozlangan yuk avtomobillari, yirik gabaritli, og‘ir vaznli va xavfli

yuklarni tashish uchun maxsus transport vositalari va ularning tirkamalari — bir yilda ikki marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ko‘p bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — ikki yilda bir marta;

ishlab chiqarilganiga olti yildan ortiq bo‘lgan, shuningdek, ishlab chiqarilgan vaqti aniq bo‘lmagan transport vositalari (mazkur bandning ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalaridan tashqari) — bir yilda bir marta;

tirkamalar texnik ko‘rikka transport vositasi — shatakchi uchun belgilangan muddatlarda;

navbatdagi texnik ko‘rikdan o‘tkazishning ilgari o‘rnatilgan muddatlaridan qat’i nazar, ularni Davlat yo‘l harakati xavfsizligi xizmati (keyingi o‘rinlarda - DYHXX) organlarida ro‘yxatdan o‘tkazish (qayta ro‘yxatdan o‘tkazish) vaqtida (birinchi marta ro‘yxatga olinayotgan yangi transport vositalari bundan mustasno).

4. Mazkur qarorning 3-bandi ikkinchi xatboshisida ko‘rsatilgan transport vositalarining texnik ko‘rigi:

birinchi marta – 1-mart – 30-iyunda;

ikkinchi marta – 1-sentyabr – 31-oktyabrda o‘tkaziladi.

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli boshqa transport vositalarining texnik ko‘rigi 1-yanvar – 31-dekabrda o‘tkaziladi.

5. Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tuman komissiyasi rahbariga transport vositalarining texnik ko‘rikdan o‘tkazishda:

transport vositasini ro‘yxatdan o‘tkazish to‘g‘risidagi guvohnomada (texnik pasportda, texnik talonda) ko‘rsatilgan ma’lumotlarga transport vositasi turi, markasi, modeli, davlat ro‘yxatidan o‘tkazish raqami belgilari, shassi (rama), kuzov va dvigatelning identifikatsiyalash raqamlarining muvofiqligi;

transport vositasining texnik holati va jihozlari texnik reglamentlar, standartlar talablariga, yo‘l harakati xavfsizligi qoidalari va normalariga muvofiqligi;

maxsus va tezkor xizmatlarning transport vositalarida maxsus rangli va ovozli signallar qurilmalarining mavjudligi, sozligi va qonuniyligi, shuningdek,

transport vositasining rang-grafik bo‘yash sxemalarining texnik reglamentlar yoki standartlar talablariga muvofiqligi;

gaz yonilg‘isida ishlash uchun qayta jihozlangan transport vositalarini texnik ko‘rikdan o‘tkazishda gaz ballonlarining foydalanish muddati, ishlab chiqarilgan yili, zavod raqami, gaz ballonlarini sinovdan o‘tkazish muddatlari, gaz balloni anjomlarining belgilangan talablarga muvofiqligini tekshirilishini ta’minlasin.

6. Transport vositalarining majburiy texnik ko‘rigi DYHXX organlari hamda tadbirkorlik sub’ektlari – yuridik shaxslar tomonidan Nizomga muvofiq o‘tkaziladi hamda tegishli yig‘im undiriladi.

Transport vositalarining texnik holati va uskunalarining muvofiqligini baholash uchun DYHXX organlari tomonidan vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlarning texnika bazalari, shuningdek, xususiy texnik xizmat ko‘rsatish stansiyalari shartnoma asosida jalb etilishi mumkin.

Jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan M1 toifadagi transport vositalari faqat tadbirkorlik sub’ektlari tomonidan texnik ko‘rikdan o‘tkaziladi.

7. Tumandagi barcha transport vositalari egalari bo‘lgan yuridik va jismoniy shaxslarga texnik ko‘rikdan o‘tkazish jadvali asosida transport vositalarini texnik jihatdan sozligini o‘z vaqtida texnik ko‘rikdan o‘tkazish majburiyati yuklatilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 9-martdagi 125-son “Transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida nizomni tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori 3-bandiga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi, Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati harbiy bo‘linmalarining transport vositalari mazkur idoralar tomonidan belgilangan tartibda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazilishi inobatga olinsin.

9. Tuman hokimining 2021-yil 3-martdagi Q-390-son “Tuman hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalari va ularga tirkamalarni 2021-yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida”gi qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

10. Mazkur qaror “Boysun” gazetasida rasman e’lon qilinsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin

11. Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

12. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish tuman hokimi o‘rinbosari

Sh.Normo‘minov zimmasiga yuklatilsin.

Hokim **A.Ch.Jo'rayev**

Бойсун туман ҳокимининг
2022 йил 14 февралдаги
92-8-110-Q/22-сон қарорига
1-илова

Tumanda transport vositalarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish bo‘yicha tuman komissiyasi

T A R K I B I

Komissiya raisi :

A.T.Toshpo‘latov		Boysun tuman ichki ishlar bo‘limi yo‘l harakati xavfsizligi guruhi katta inspektori, katta leytenant

Komissiya a’zolari:

X.R. Xujanov	-	Curxondaryo viloyati transport boshqarmasi “Shahar va tumanlardagi transport sektori”, birinchi toifali inspektori
K.A.Abdiyev	-	Tuman mudofaa ishlari bo‘limi rezervistlar va harbiy xizmatga majburlarni hisobga olish bo‘linmasi boshlig‘i yordamchisi
I.N.A’zamov		Surxondaryo viloyat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi nazorat bo‘yicha Boysun tuman inspeksiyasi boshlig‘i

Komissiya kotibi:

A.A.Azizov	-	Tuman ichki ishlar bo‘limi YHXG MXMKCh inspektori, katta serjant

Бойсун туман ҳокимининг
2022 йил 14 февралдаги
92-8-110-Q/22-сон қарорига
2-илова

Jismoniy va yuridik shaxslarga tegishli bo‘lgan transport vositalarining 2022- yilgi majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish

J A D V A L I

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Trans-portlar soni
1.	Boysun tuman “110-avtokorxona” xususiy firmasi	25-26.04.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	110-avtokor-xonada	82
2.	“Altair Mini Maks” xususiy firmasi	27.04.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	110-avtokor-xonada	4
3.	“Akbarshoh Boysuniy” xususiy firmasi	27.04.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	110-avtokor-xonada	4
4.	Boysun tuman tibbiyot birlashmasi	28.04.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Tibbiyot birlashmasi avtosaroyida	4
5.	Boysun tuman sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi bo‘limi	15.02.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Tibbiyot birlashmasi avtosaroyida	3
6.	“SAFAR” MChJ	15.02.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	4
7.	“Boysun-marjoniy” xususiy firmasi	15.02.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
8.	“BOYSUN QURUVSHI” MChJ	15.02.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Jamiyat saroyida	8
9.	“Qilichbek” xususiy firmasi	15.02.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
10.	“Oqbuloq” fermer xo‘jaligi	15.02.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Fermer xo‘jaligi saroyida	3
11.	“Orzu” savdo ishlab chiqarish firmasi	17.02.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Jamiyat saroyida	4
12.	“O‘rilsoy” fermer xo‘jaligi	18.02.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
13.	“Uchqun” xususiy firmasi	18.02.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
14.	“Agrobank” ATB Boysun filiali	18.02.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	“Agroba-nk” ATB saroyida	1
15.	AT “Xalk banki” Boysun filiali	18.02.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	4

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Trans-portlar soni
16.	“Alsu stroy” MChJ	21.02.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
17.	“Afruz avtomakon” MChJ	02.03.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Jamiyat saroyida	3
18.	“Yodgor shifo” xususiy firmasi	02.03.2022 y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
19.	“Ko‘k soy maxsus montaj” MChJ	07.03.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Jamiyat saroyida	4
20.	“Ko‘chkak Chinori” xususiy firmasi	08.03.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Firma saroyida	8
21.	O‘zbekiston Temir yo‘llari AJ ga qarashli “Omonxona” bolniologik davolash maskani sho‘ba xo‘jaligi	29.04.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Xo‘jaliksaroyida	7
22.	“O‘zagrosug‘urta” AJ Boysun bo‘linmasi	09.03.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
23.	“Firdavs” xususiy firmasi	09.03.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
24.	“BOYSUN DRIVER CAR” unitar korxonasi	15.03.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Korxona saroyida	5
25.	“BOYSUN UNIVERSAL MASTER GROUR” MChJ	16.03.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
26.	“SONUSH ROK SERVIS SURXON” MChJ	18.03.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Jamiyat saroyida	2
27.	“Abdunazarov Ziyodullo” fermer xo‘jaligi	22.03.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
28.	“Baxrom o‘g‘li Dilshod” xususiy firmasi	25.03.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	2
29.	“Mirqorako‘z gaz quyish” MChJ	04.04.2022 y	10-00 dan 12-00 gacha	Jamiyat saroyida	3
30.	“Yevro Boysun” ko‘shma kichik korxonaSI	05.04.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
31.	“XURSHID” kichik korxonasi	08.04.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	2
32.	Boysun tuman moliya bo‘limi	11.04.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Bo‘lim saroyida	3

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Trans-portlar soni
33.	“Boysun-Baxtiyoriy” xususiy firmasi	14.04.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
34.	“Aylangari” xususiy firmasi	14.04.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Firma saroyida	3
35.	“Shayx-Yunon” MChJ	15.04.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Jamiyat saroyida	3
36.	“Xududgaz Surxondaryo” gaz ta’minoti filiali “Boysuntumangaz” bo‘limi	30.04.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Bo‘lim saroyida	9
37.	O‘zbekiston Mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti Boysun tuman O‘STK	30.04.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Klub saroyida	11
38.	“Chorbog‘ qurilish invest” xususiy korxonasi	19.04.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	2
39.	“Shams-Nur-Invest” xususiy korxonasi	01.05.2022 y	10-00 dan 12-00 gacha	Korxona saroyida	6
40.	“Boysun agro tex servis” MChJ	06.05.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
41.	“Boysun Baraka trans” MChJ	06.05.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
42.	“Boysun Grand” MChJ	06.05.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
43.	“Boysun Yog‘dusi” xususiy korxonasi	11.05.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
44.	Boysun tuman veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi	11.05.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Bo‘lim saroyida	1
45.	Boysun davlat o‘rmon xo‘jaligi	17.05.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Xo‘jalik saroyida	4
46.	Boysun tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	18.05.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Korxona saroyida	2
47.	Boysun “Zebi savdo” MChJ	24.05.2022 y	10-00 dan 12-00 gacha	Jamiyat saroyida	1

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Trans-portlar soni
48.	“Boysun iftixori” MChJ	24.05.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Jamiyat saroyida	1
49.	“Boysun santexnik” MChJ	27.05.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Jamiyat saroyida	2
50.	“Boysun ixtisos ta’mir” xususiy korxonasi	03.06.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
51.	“Boysun qurilish sanoat” xususiy korxonasi	03.06.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
52.	Boysun “Savdo invest” xususiy korxonasi	07.06.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	2
53.	Boysun “Janub gavhari” fermer xo‘jaligi	07.06.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
54.	“Boysun Avtosaqlash joyi” xususiy korxonasi	07.06.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
55.	Boysun tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi	14-16.06.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Korxona saroyida	39
56.	“Boysun duradgorlari” MChJ	21.06.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
57.	“Boysun javohiri sanoat qurilish” MChJ	21.06.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
58.	“Boysun Temir yo‘l invest” MChJ	22.06.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Jamiyat saroyida	3
59.	“Boysun Ko‘mir” MChJ	23.06.2022 y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
60.	“Boysun qurilish santexnika” MChJ	24.06.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	2
61.	“Boysun qut-baraka” xususiy korxonasi	24.06.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
62.	“Boysun Sabrina Fayz” xususiy korxonasi	28.06.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	2
63.	“Boysun Trans avto servis” MChJ	04.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	2

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Trans-portlar soni
64.	“Boysun Umid” MChJ	05.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Jamiyat saroyida	4
65.	“Bunyodkor ixtisos ta’mir” xususiy korxonasi	06.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	2
66.	“Boysun chorvosi” fermer xo‘jaligi	07.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	2
67.	“Dashtig‘oz servis” xususiy korxonasi	08.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	2
68.	“Grane operator” xususiy korxonasi	11.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
69.	“Zilol” MChJ	11.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
70.	“Islombek va Gulzoda” MChJ	11.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
71.	“Kafolat Boysun” xususiy korxonasi	15.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
72.	“Kenja Sodiq” MChJ	18.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	2
73.	Boysun tuman Mahalla va oilani qo‘llab-quvvatlash bo‘limi	19.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
74.	“Maxdi Yusuf” xususiy korxonasi	19.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
75.	“Marjonbonu Darband” fermer xo‘jaligi	19.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
76.	“Kofrun oqqat bulog‘i” fermer xo‘jaligi	20.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	2
77.	“MIRSO XOLMAT ISO” xususiy korxonasi	20.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
78.	“Muxtadir ixtisos-ta’mir” xususiy korxonasi korxonasi	26.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	2
79.	“Nafosat” MChJ	26.07.2022 y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Trans-portlar soni
80.	“Normat” xususiy ishlab chiqarish korxonasi	27.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	2
81.	“Otamurod” xususiy korxonasi	28.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Korxona saroyida	4
82.	“Pokiza” xususiy korxonasi	29.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
83.	“Boysun trans gaz” xususiy korxonasi	29.07.2022 y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
84.	Boysun tuman xalq ta’lim bo‘limii	29.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
85.	Boysun tuman hokimligi	29.07.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	8
86.	Boysun tuman qorako‘lchilik markazi	04.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
87.	Darband maxsus temir yo‘l ta’mirlash korxonasi	05.08.2022	10-00 dan 12-00 gacha	Korxona saroyida	4
88.	“Lazzat” xususiy ishlab chiqarish savdo firmasi	08.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
89.	“Daxbed” kichik korxonasi	08.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
90.	“Muqaddas Makon” xususiy firmasi	08.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
91.	“Mo‘min” xususiy kichik korxonasi	01.12.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Korxona saroyida	3
92.	“Ne’mat invest savdo” MChJ	15.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	2
93.	“Soxibjon Omad” yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan dehqon xo‘jaligi	16.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
94.	“Panjob avto servis” MChJ	22.08.2022 y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
95.	O‘zbekiston yoshlar ittifoqi Boysun tuman Kengashi	22.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Trans-portlar soni
96.	“Beknazar bobo” xususiy korxonasi	22.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
97.	“Chor-Chinor” fermer xo‘jaligi	22.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
98.	“Kamalak” kichik korxonasi	23.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
99.	“Sharof trans” xususiy korxonasi	23.04.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
100.	“Shoxista” xususiy korxonasi	23.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
101.	“Baxti va Beklar” MChJ	23.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
102.	“Boysun Yoqut savdo” xususiy korxonasi	24.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	Korxona saroyida	3
103.	“Boysun milliy hunarmadchilik markazi” MChJ	25.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
104.	“Jo‘raboy Jebachi” fermer xo‘jaligi	26.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
105.	“Chambil” fermer xo‘jaligi	26.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
106.	“Boysun sabosi” xususiy korxonasi	26.08.2022 y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
107.	“Duradgor” kichik korxonasi	29.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
108.	“Boysun ifori” xususiy firmasi	29.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
109.	“Boysun Marjoni” xususiy kichik korxonasi	29.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
110.	“Jahon” xususiy firmasi	30.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	2
111.	“Omonlik” xususiy korxonasi	30.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
112.	“Temur-baraka-ishonch” xususiy firmasi	30.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1

№	Tashkilot, korxona, xo‘jalik va muassasalar nomi	Texnik ko‘rik o‘tkazish kunlari	Texnik ko‘rik o‘tkazish vaqti	Texnik ko‘rik o‘tkaziladigan joy	Trans-portlar soni
113.	“BOYSUN-OLMOS” xususiy korxonasi	30.08.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
114.	“Sanoat Agro Invest Savdo” MChJ	05.09.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	1
115.	Boysun tuman 1-son kasb-hunar maktabi	05.09.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	6
116.	Boysun tuman 2-son kasb-hunar maktabi	05.09.2022-y	10-00 dan 12-00 gacha	YHXG da	2
Jami tuman bo‘yicha					**367**